

PAPER

YOSH RASSOMLARDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQIY OBRAZLARNING ROLI

Baltayeva Xalima Toraboyevna^{1,*} and Jumanazarova Shaydo Kenjaboy qizi²

¹Urganch davlat pedagogika instituti San'atshunoslik kafedrası o'qituvchi

²UrDPI Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi talabasi

* baltayeva327@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada yosh rassomlarda milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayonida musiqiy obrazlarning tutgan o'rni tahlil qilinadi. Xususan, Sharq miniatyura san'atida musiqiy syujet va obrazlarning badiiy-estetik hamda tarbiyaviy ahamiyati yoritib berilgan. Miniaturada mashg'ulotlarida musiqiy obrazlardan foydalanish orqali yosh rassomlarda milliy madaniyatga hurmat, tarixiy xotira va estetik didni rivojlantirish masalalari ilmiy-uslubiy jihatdan asoslab beriladi. Maqolada musiqiy sahnalar asosida ishlangan kompozitsiyalarning ta'lim jarayonidagi samaradorligi ochib berilgan.

Key words: Miniaturada san'ati, musiqiy obrazlar, milliy qadriyatlar, yosh rassomlar, Sharq san'ati, milliy musiqa, estetik tarbiya, badiiy tafakkur, tasviriy san'at ta'limi.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan bir davrda yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira va madaniy merosga hurmat tuyg'ularini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari va ommaviy madaniyatning keng tarqalishi natijasida milliy qadriyatlar, an'anaviy san'at turlari va estetik qarashlar yoshlar ongida sekin-asta ikkinchi darajaga tushib qolish xavfi mavjud. Shu bois ta'lim-tarbiya jarayonida milliy san'at

namunalariga tayangan holda yosh rassomlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san'at, xususan Sharq miniatyura san'ati, yosh avlodning badiiy tafakkuri va estetik didini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularda milliy qadriyatlarga sadoqat ruhini shakllantirishda kuchli tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Miniaturada san'ati asrlar davomida Sharq xalqlarining hayoti, urf-odatlarini, madaniy muhitini nozik badiiy ifoda orqali aks ettirib kelgan. Ushbu san'at turida musiqiy obrazlar — sozandalar, cholg'u asboblari, musiqiy majlislar, bayram va karvon

Compiled on: January 17, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Education* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](#).

sahnalari — alohida o‘rin tutadi. Musiqa xalqning ma‘naviy dunyosini ifodalovchi eng muhim san‘at turlaridan biri bo‘lib, u milliy ruh, tarixiy xotira va estetik qadriyatlarni mujassamlashtiradi. Musiqiy obrazlarning tasviriy san‘at bilan uyg‘unlashuvi esa yanada kuchli ta‘sirchanlikka ega bo‘ladi. Ayniqsa, miniatyura san‘atida musiqiy syujetlar orqali nafaqat musiqaning o‘zi, balki uni yaratgan va ijro etgan insonlarning ichki kechinmalari, jamiyatdagi o‘rni ham badiiy ifodalanadi. Yosh rassomlarni tayyorlash jarayonida musiqiy obrazlarga asoslangan mavzularni tanlash ularning milliy madaniyatga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ijodiy tafakkurini boyitadi hamda tasviriy san‘at orqali musiqa san‘atini his etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bunday yondashuv yosh rassomlarda nafaqat professional badiiy malakalarni, balki milliy qadriyatlarga asoslangan estetik dunyoqarashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, yosh rassomlarda milliy qadriyatlarni shakllantirishda musiqiy obrazlarning o‘rni va ahamiyatini ilmiy-uslubiy jihatdan o‘rganish bugungi kun talabi hisoblanadi. Mazkur maqolada Sharq miniatyura san‘ati misolida musiqiy obrazlarning tarbiyaviy, estetik va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinib, ularni ta‘lim jarayonida samarali qo‘llash masalalari yoritib beriladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Milliy qadriyatlar — bu xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan ma‘naviy, madaniy, estetik va axloqiy mezonlar majmuasidir. Musiqa esa ushbu qadriyatlarning eng nozik va chuqur ifodachilaridan biri hisoblanadi. An‘anaviy cholg‘u asboblari (tanbur, dutor, rubob, nay, doira va boshqalar), maqom san‘ati va xalq kuy-qo‘shiqlari milliy ruhni aks ettiruvchi muhim unsurlardir. Musiqiy obrazlar tasviriy san‘atda faqatgina bezak yoki syujet elementi emas, balki ma‘naviy mazmun tashuvchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, miniatyura san‘atida musiqiy sahnalar orqali davr ruhi, xalq hayoti va estetik qarashlar badiiy ifodalanadi. Har bir xalqning musiqiy merosi uning tarixiy hayoti, turmush tarzi, quvonch va iztiroblari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan. Musiqiy obraz tushunchasi tasviriy va musiqiy san‘at uyg‘unligida alohida ahamiyat kasb etadi. Musiqiy obraz — bu musiqa bilan

bog‘liq sahna, qahramon, holat yoki ramziy tasvir bo‘lib, u musiqaning mazmunini, kayfiyatini va estetik ta‘sirini vizual shaklda ifodalaydi. Bunday obrazlar tomoshabinda nafaqat ko‘rish orqali, balki ichki his-tuyg‘ular orqali ham musiqani “eshitish” imkonini yaratadi. Sharq miniatyura san‘atida musiqiy obrazlar ko‘pincha ramziy va falsafiy mazmun kasb etadi. Miniatyura asarlarida tasvirlangan sozandalar faqat musiqa ijrochisi sifatida emas, balki ma‘naviy uyg‘unlik, ichki osoyishtalik va go‘zallik timsoli sifatida talqin qilinadi. Cholg‘u asboblari esa milliy madaniyatning ajralmas belgisi bo‘lib, ular orqali xalqning estetik qarashlari va ruhiy olami ifodalanadi. Milliy qadriyatlar va musiqiy obrazlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yosh rassomlar tarbiyasida alohida ahamiyatga ega. Musiqiy obrazlarga asoslangan tasviriy kompozitsiyalar yosh rassomlarda milliy madaniyatga nisbatan qiziqishni kuchaytiradi, tarixiy xotirani jonlantiradi va milliy o‘zlikni anglash jarayonini chuqurlashtiradi. Bu jarayonda musiqiy obrazlar nafaqat badiiy mavzu, balki tarbiyaviy vosita sifatida ham xizmat qiladi. Shuningdek, musiqiy obrazlar orqali yosh rassomlar milliy estetik qadriyatlarni amaliy ravishda o‘zlashtiradilar. Rang tanlash, ritm va harakatni ifodalash, kompozitsion muvozanatni topish jarayonida musiqa mazmuni tasviriy vositalar orqali ifodalanadi. Natijada yosh rassomlarda milliy san‘atga xos badiiy tafakkur, estetik sezgi va ijodiy yondashuv shakllanadi. Milliy qadriyatlar va musiqiy obrazlar tushunchalari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘unligi yosh rassomlarda milliy madaniyatga hurmat, estetik did va ma‘naviy barkamollikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, tasviriy san‘at ta‘limida musiqiy obrazlarga asoslangan mavzularni keng joriy etish zamonaviy ta‘lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Sharq miniatyura san‘ati tarixida musiqiy obrazlar keng o‘rin egallagan. Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib kabi musavvirlar asarlarida sozandalar, bayram va majlis sahnalari ko‘p uchraydi. Ushbu obrazlar orqali nafaqat musiqaga bo‘lgan hurmat, balki jamiyatdagi madaniy muhit, an‘analalar va urf-odatlar tasvirlangan. Miniatyurada musiqiy obrazlar dekorativlik, ritm va harakat bilan uyg‘unlashib, tomoshabinda estetik zavq uyg‘otadi. Bu esa yosh rassomlarning rang

sezgisi, kompozitsion tafakkuri va badiiy didini rivojlantiradi. Sharq miniatyura san'ati ko'p asrlar tarixiga ega bo'lib, u Sharq xalqlarining ma'naviy hayoti, madaniy an'analari va estetik qarashlarini o'zida mujassam etgan noyob tasviriy san'at turi hisoblanadi. Miniatyura asarlari orqali nafaqat tarixiy voqealar va adabiy syujetlar, balki kundalik hayot, bayramlar, marosimlar ham badiiy jihatdan yuksak darajada ifodalangan. Ushbu san'at turida musiqiy obrazlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular miniatyura kompozitsiyalarining mazmuniy va estetik markazlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Miniatyura san'atida musiqiy obrazlar, avvalo, milliy madaniyat va ma'naviyat timsoli sifatida ifodalanadi. Sozandalar, hofizlar, raqqosalar, cholg'u asboblari ishtirokidagi sahnalar orqali muayyan davrning madaniy muhiti, saroy va xalq hayoti, estetik didi tasvirlanadi. Bunday obrazlar tomoshabinga o'sha davr musiqiy an'analari, ijro madaniyati va badiiy qarashlari haqida tasavvur beradi. Sozanda qiyofalari, qo'l va barmoqlarning harakati, cholg'u asboblarning shakli va joylashuvi kompozitsiyaga dinamiklik bag'ishlaydi. Bu esa tasviriy san'at orqali musiqaning ohangini, ritmini va kayfiyatini sezdirish imkonini yaratadi. Aynan shu jihat miniatyura san'atining betakror estetik xususiyatlaridan biri sanaladi. Sharq miniatyura maktablarida musiqiy obrazlarning talqini turlicha bo'lgan. Masalan, Hirot va Buxoro miniatyura maktablarida sozandalar obrazlari nafislik, muvozanat va bezakdorlik bilan ajralib turgan bo'lsa, Samarqand va Tabriz maktablarida harakat va dramatik ifoda kuchliroq bo'lgan. Bu farqlar musiqiy obrazlarning badiiy talqinida maktablararo uslubiy xilma-xillikni ko'rsatadi. Miniatyura san'atida musiqiy obrazlar ko'pincha ramziy mazmunga ega bo'ladi. Musiqi nafaqat quvonch va bayram timsoli, balki ma'naviy poklanish, ruhiy uyg'unlik va ichki osoyishtalik belgisi sifatida tasvirlanadi. Tasavvufiy mazmundagi miniatyuralarda musiqiy obrazlar ilohiy muhabbat va ruhiy kamolot ramzi sifatida talqin etilgan. Bu holat musiqiy obrazlarning falsafiy va ma'naviy ahamiyatini yanada oshiradi. Shuningdek, musiqiy obrazlar miniatyura asarlarining dekorativ yechimida muhim o'rin tutadi. Cholg'u asboblarning nafis shakllari, kiyim-kechak bezaklari, atrof-muhit detallarining uyg'unligi umumiy kompozitsion

yaxlitlikni ta'minlaydi. Ranglar orqali musiqaning kayfiyati — quvonch, sokinlik yoki tantanavorlik — tasviriy vositalar yordamida ifodalanadi. Bugungi kunda musiqiy obrazlarga boy miniatyura asarlarini o'rganish va ularni ta'lim jarayonida qo'llash yosh rassomlarning milliy san'atga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois musiqiy obrazlarni o'rganish va amaliy ijodda qo'llash yosh rassomlar tarbiyasida muhim ilmiy va pedagogik ahamiyatga ega. Yosh rassomlar bilan ishlash jarayonida musiqiy syujetlarga asoslangan kompozitsiyalar quyidagi pedagogik natijalarga olib keladi:

- milliy madaniyat va san'atga nisbatan qiziqish uyg'otadi;
- tarixiy obrazlar orqali milliy o'zlikni anglashni kuchaytiradi;
- badiiy tafakkur va obrazli fikrlashni rivojlantiradi;
- an'anaviy san'at turlariga hurmat ruhini shakllantiradi.

Masalan, “Sozandalar karvoni”, “Maqom majlisi”, “Bayramdagi sozandalar” kabi mavzular yosh rassomlarni milliy musiqa bilan yaqindan tanishtirib, ularni tasviriy san'at orqali musiqani his qilishga undaydi.

Yosh rassomlar tarbiyasi jarayonida san'atni faqat texnik mahorat sifatida emas, balki shaxsni har tomonlama rivojlantiruvchi tarbiyaviy vosita sifatida talqin etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Sharq miniatyura san'atida musiqiy syujetlarga asoslangan kompozitsiyalar yosh rassomlar tarbiyasida o'ziga xos didaktik imkoniyatlarga ega. Pedagogik nuqtai nazardan, musiqiy obrazlar yosh rassomlarda obrazli va assotsiativ fikrlashni rivojlantiradi. Musiqi ohanglari bevosita eshitish orqali idrok etilsa, tasviriy san'atda ular rang, chiziqli va shakl orqali ifodalanadi. Ushbu ikki san'at turining uyg'unligi yosh rassomlarni musiqani “ko'rish” va tasviriy vositalar orqali his etishga o'rgatadi. Natijada, ularning ijodiy tafakkuri kengayib, fantaziya va tasavvur qobiliyati rivojlanadi. Musiqiy obrazlar asosida ishlash yosh rassomlarning kompozitsion malakalarini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Sozandalar joylashuvi, cholg'u asboblarning kompozitsiyadagi o'rni, figuralarning o'zaro munosabati yosh rassomlarda kompozitsion tafakkurni shakllantiradi. Bu jarayon

ularni murakkab badiiy vazifalarni mustaqil hal qilishga o'rgatadi. Shuningdek, musiqiy obrazlar yosh rassomlarda estetik his-tuyg'ularni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Musiqa inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatganidek, uning tasviriy ifodasi ham tomoshabinda chuqur emotsional holat uyg'otadi. Musiqiy sahnalarni tasvirlash jarayonida yosh rassomlar ranglarning emotsional ta'sirini his qiladi, rang uyg'unligi orqali kayfiyat yaratishni o'rganadi. Ta'lim jarayonida musiqiy obrazlardan foydalanish yosh rassomlarda ijtimoiy va ma'naviy fazilatlarini ham shakllantiradi. Musiqiy majlis va jamoaviy ijro sahnalari tasviri orqali hamjihatlik, o'zaro hurmat, an'analarga sodiqlik kabi ijtimoiy qadriyatlar singdiriladi. Ayniqsa, miniatyura to'garak mashg'ulotlarida guruhli ijodiy ishlarda musiqiy mavzularni tanlash o'quvchilarning bir-biri bilan ijodiy hamkorligini kuchaytiradi. Pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki, musiqiy obrazlarga asoslangan mashg'ulotlar yosh rassomlarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bunday mashg'ulotlarda nazariy bilimlar amaliy ijod bilan uzviy bog'lanadi, bu esa o'quv materialining puxta o'zlashtirilishiga xizmat qiladi. Shu sababli tasviriy san'at ta'limida, ayniqsa miniatyura mashg'ulotlarida musiqiy obrazlarga asoslangan mavzularni tizimli ravishda qo'llash yosh avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashning samarali yo'llaridan biri hisoblanadi. Miniatyura to'garaklari va darslarida musiqiy obrazlar asosida ishlash samarali metodlardan biri hisoblanadi. Mashg'ulot jarayonida:

- musiqiy asboblari va ularning tarixiy ahamiyati tushuntiriladi;
- miniatyura asarlaridagi musiqiy sahnalar tahlil qilinadi;
- mavzu asosida kompozitsiya tuzish o'rgatiladi;
- rang va bezak elementlari orqali musiqiy kayfiyat ifodalanadi.

Miniatyura mashg'ulotlarida musiqiy obrazlardan foydalanish o'quv jarayonini jonlantiruvchi va mazmunan boyituvchi metodik yondashuvlardan biridir. Miniatyura san'atida musiqiy sahnalar tasvirlangan tarixiy asarlar namoyish etilib, ularning kompozitsion va badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Keyingi bosqichda musiqiy asar tinglash orqali badiiy kayfiyat hosil qilinadi. Masalan, maqom yoki

xalq kuylarini tinglash jarayonida o'quvchilardan musiqaning ohangi, ritmi va umumiy ruhini his etish talab etiladi. Bu jarayon tasviriy faoliyatga psixologik tayyorgarlik vazifasini bajaradi. Amaliy mashg'ulot jarayonida o'quvchilar musiqiy obrazlarga asoslangan kompozitsiyalar yaratadilar. Mashg'ulotlarning yakuniy bosqichida bajarilgan ishlar tahlil qilinadi. O'quvchilar o'z asarlari orqali qaysi musiqiy kayfiyatni aks ettirganliklarini izohlaydilar. Metodik jihatdan qaralganda, musiqiy obrazlardan foydalanish miniatyura mashg'ulotlarini integrativ dars shakliga olib chiqadi. Ya'ni tasviriy san'at musiqa, tarix va madaniyat bilan uzviy bog'lanadi. Natijada o'quv jarayoni yanada samarali, mazmunli va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi. Miniatyura mashg'ulotlarida musiqiy obrazlardan foydalanish metodikasi yosh rassomlarda milliy qadriyatlar, ijodiy tafakkur va estetik didni shakllantirishda muhim pedagogik imkoniyatlarga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, musiqiy obrazlar yosh rassomlarda milliy qadriyatlarni shakllantirishda muhim badiiy va pedagogik vosita hisoblanadi. Sharq miniatyura san'atida musiqiy syujetlar orqali xalqning tarixiy hayoti, estetik qarashlari va ma'naviy dunyosi yuksak badiiy ifoda topgan. Ushbu obrazlarni ta'lim jarayonida qo'llash yosh rassomlarning milliy madaniyatga bo'lgan qiziqishini oshiradi, estetik didini rivojlantiradi hamda ijodiy tafakkurini boyitadi. Miniatyura mashg'ulotlarida musiqiy obrazlardan foydalanish orqali yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, tarixiy merosga hurmat va san'atga sadoqat tuyg'ulari shakllanadi. Bu jarayon yosh rassomlarning nafaqat professional mahoratini, balki ma'naviy barkamolligini ham ta'minlaydi. Shu sababli, tasviriy san'at ta'limida musiqiy obrazlarga asoslangan mavzularni keng joriy etish, ularni metodik jihatdan boyitish va zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Musiqiy obrazlar asosida ishlangan miniatyura asarlari yosh rassomlarda milliy qadriyatlarni mustahkamlash va kelajak avlodga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bulatov S. Sharq miniatyura san'ati tarixi. — Toshkent: Fan, 2005.
2. Saidov B. Miniatyura san'atida kompozitsiya asoslari. — Toshkent: Akademnashr, 2018.
3. Rahimov A. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. — Toshkent: Ijod-Press, 2016.
4. Qosimov X. Milliy musiqa va estetik tarbiya. — Toshkent: Musiqa, 2014.
5. Azimova N. O'zbek tasviriy san'ati va milliy an'alar. — Toshkent: O'qituvchi, 2012.
6. Islomov B. Sharq miniatyura maktablari va musiqiy obrazlar. — Toshkent: Fan, 2017.
7. Raximova G. Musiqiy obrazlarning tasviriy san'atdagi badiiy talqini. — Toshkent: San'at, 2019.